

IJTIMOIY TARMOQLARNING YOSHLAR ONGIGA
TA'SIRI: SOTSIOLOGIK YONDASHUV

Dovranova Moxidil Validinovna

Farg'onan davlat universiteti

Sotsiologiya yo'nalishi talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlarning zamonaviy yoshlari ongiga ko'rsatadigan ijtimoiy-psixologik ta'siri sotsiologik nuqtayi nazardan o'rganiladi. Tahlil davomida yoshlarning axborotga bo'lgan munosabati, virtual muhitdagi ijtimoiylashuvi, qadriyatlar tizimidagi o'zgarishlar, shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarning shaxsiy hayot, o'zini ifoda etish va ijtimoiy faollikka ta'siri yoritiladi. Maqolada sotsiologik so'rovnomalari natijalar, ekspert fikrlari va amaliy misollar orqali real holatlar tahlil qilinadi. Shu asosda yoshlari bilan ishlashda samarali yo'nalishlar, mediamadaniyatni shakllantirish va ijtimoiy tarmoqlardan to'g'ri foydalanish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy tarmoqlar, yoshlari, ong, sotsiologik tahlil, axborot iste'moli, virtual ijtimoiylashuv, mediamadaniyat, qadriyatlar o'zgarishi, shaxsiy identifikatsiya

KIRISH

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonlarida ijtimoiy tarmoqlar yoshlari hayotining ajralmas bir qismiga aylanib bormoqda. Axborot texnologiyalarining keng quloch yoygani, xususan, ijtimoiy tarmoqlarning ommalashuvi natijasida yosh avlodning dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi, kommunikatsiya shakllari va ijtimoiy faolligida sezilarli o'zgarishlar yuz bermoqda.

Ijtimoiy tarmoqlar nafaqat axborot olish, balki o'z fikrini erkin ifoda etish, ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirish va shaxsiy brend yaratish vositasiga aylangan.

Shu bilan birga, virtual muhitda mavjud bo'lgan axborotlar oqimi, sun'iy ideallar va ijtimoiy bosimlar yoshlarning ongini shakllantirishda muhim omillardan biri bo'lib qolmoqda.

Ushbu maqola orqali ijtimoiy tarmoqlarning yoshlari ongiga qanday ta'sir qilayotgani sotsiologik nuqtayi nazardan o'rganiladi. Asosiy e'tibor virtual ijtimoiylashuvning ijobiy va salbiy jihatlariga, yoshlarning axborotni qabul qilishdagi psixologik xususiyatlariga va jamiyatdagi o'z o'rmini anglash jarayonlariga qaratiladi.

ASOSIY QISM

Ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar ongiga ta'siri ko‘p qirrali va murakkab jarayondir. Bu jarayonni soddalashtirish yoki faqat salbiy tomonlarini ko‘rsatish yetarli emas. Aksincha, ularning yoshlar ijtimoiylashuvi, dunyoqarashi va shaxsiy rivojlanishidagi ijobiy hamda salbiy jihatlarini chuqur tahlil qilish muhimdir.

Yoshlar ijtimoiy tarmoqlar orqali o‘zlariga do‘stilar topadilar, turli millat va madaniyat vakillari bilan muloqotga kirishadilar, zamonaviy dunyo yangiliklaridan xabardor bo‘ladilar. Bu, albatta, ularning tafakkuri va ongini kengaytiradi. Masalan, ingliz tilini o‘rganayotgan yosh bir inson xorijlik blogerlarning postlari orqali til bilimini amaliyotda sinab ko‘rishi, xorijiy madaniyat haqida bilib olishi mumkin.

Biroq bu imkoniyatlar bilan birga muayyan xavf-xatarlar ham mavjud. Ko‘p hollarda yoshlar real hayotdagi ijtimoiy aloqalardan chetlashib, faqat virtual muhitda muloqot qilishga o‘rganib qolishadi. Bu esa ularning real jamiyatga moslashuvchanligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, tarmoqlarda ko‘rsatilayotgan nohaqiqiy, bezakli hayot tasvirlari yoshlarni o‘zidan norozi bo‘lishga, o‘zini baholashda noto‘g‘ri mezonlarga tayanishga olib keladi.

Sotsiologik yondashuv bu holatni tushunishda muhim rol o‘ynaydi. Yoshlar orasida so‘rovnomalar o‘tkazish orqali ularning tarmoqlardan foydalanish maqsadi, vaqt sarfi, psixologik holati va ijtimoiy qadriyatlari aniqlanadi. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarda tarqalgan axborotlarning ijtimoiy ongga qanday ta’sir qilayotgani ham statistik va sifatli tahlillar yordamida ochib beriladi.

Ta’lim tizimida ijtimoiy tarmoqlardan foydali foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish muhim masalalardan biri bo‘lib bormoqda. Buning uchun o‘quvchilar va talabalarga “media savodxonlik”, “axborotni tanqidiy baholash” va “raqamli madaniyat” mavzularida treninglar tashkil etish lozim. Yoshlar bu orqali faqat axborot iste’molchilari emas, balki ongli ishtirokchilarga aylanishadi.

Shuningdek, ota-onalar va pedagoglar ham bu borada doimiy ravishda yoshlar bilan ochiq muloqotda bo‘lishlari, ularni virtual hayotdan emas, real hayotdagi qadriyatlardan kuch olishga undashlari kerak. Bu esa jamiyatda sog‘lom ijtimoiy muhitni shakllantirishga xizmat qiladi.

YOSHLAR ONGIGA IJTIMOIY TARMOQLARNING TA’SIRI: IJOBIY VA SALBIY JIHATLAR TAQQOSLAMASI

Yo‘nalishlar	Ijobiy Ta’sirlar	Salbiy Ta’sirlar
Shaxsiy rivojlanish	Yangi bilim va ko‘nikmalar, til o‘rganish, global axborotlardan xabardorlik	O‘zini boshqalar bilan solishtirish orqali o‘zini past baholash
Muloqot va ijtimoiylashuv	Boshqa millat vakillari bilan muloqot qilish, ochiqlik, kommunikativ ko‘nikma	Yuzma-yuz muloqotdan uzoqlashish, yolg‘izlik hissi
Ijodiylik va o‘zini ifoda etish	Blog yuritish, kontent yaratish orqali o‘z fikrini erkin ifoda qilish	Sun’iylikka berilish, faqat boshqalarga yoqish uchun yashash

Yo‘nalishlar	Ijobiy Ta’sirlar	Salbiy Ta’sirlar
Axborot olish va tahlil qilish	Aktual yangiliklar, interaktiv ta’lim platformalaridan foydalanish	Soxta, noto‘g‘ri axborotlar ta’sirida qolish
Jamiyatga munosabat	Ijtimoiy muammolar haqida fikr bildirish, faol fuqarolik pozitsiyasi	Virtual voqealarga haddan tashqari berilish, real hayotdagi mas’uliyatdan chekinish
Psixologik holat	Ilhom, ruhiy ko’tarinkilik, motivatsion kontentlardan ta’sirlanish	Depressiya, izolyatsiya, o‘ziga ishonchning kamayishi

Yoshlarning ijtimoiy tarmoqlardagi faoliyatini ongli boshqarishga o‘rgatish muhimdir. Ular raqamli hayotda nafaqat iste’molchi, balki ijodkor va tanqidiy fikrlovchi shaxs sifatida shakllanishi kerak.

O‘quv muassasalarida media savodxonlik mashg‘ulotlaraini yo‘lga qo‘yish foydali bo‘ladi. Bu darslarda yoshlar ijtimoiy tarmoqdagi axborotlarning haqiqatga mos yoki mos emasligini aniqlashni o‘rganadilar.

Ijtimoiy tarmoqlarda foydali va ijobiy kontent yaratishga undovchi musobaqalar tashkil etish samarali bo‘ladi. Bunda yoshlar o‘z hayotiy tajribasi va bilimlarini boshqalar bilan ulashishga motivatsiya oladi.

Ota-onalarga raqamli tarbiya bo‘yicha maslahatlar berish tavsiya etiladi. Farzandlari bilan do‘stona, ishonchli munosabat o‘rnatgan ota-onalar ijtimoiy tarmoqlarning salbiy ta’sirini kamaytirishga yordam bera oladilar.

Maktab va oliygohlarda “raqamli detoks” kunlari tashkil etilishi mumkin. Bu kunlarda o‘quvchilar internetdan foydalanmaydilar va ko‘proq jonli muloqot, kitob o‘qish va sport bilan shug‘ullanadilar.

XULOSA

Bugungi raqamli jamiyatda ijtimoiy tarmoqlar yoshlar hayotining ajralmas qismiga aylangan. Ularning ijtimoiy ongiga ta’siri esa har qachongidan ham kuchliroq sezilmoqda. Sotsiologik tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning fikrlash tarziga, qadriyatlariga, dunyoqarashiga va hattoki ijtimoiy faolligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Shu sababli, yoshlarni ijtimoiy tarmoqlardan ongli va mas’uliyatli foydalanishga o‘rgatish nafaqat ta’lim tizimining, balki butun jamiyatning muhim vazifalaridan biridir. Media savodxonlik, raqamli madaniyat va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali biz yoshlarni ijtimoiy tarmoqlarning salbiy ta’siridan himoya qilishimiz mumkin.

Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlardan foydali va maqsadli foydalanishni targ‘ib qilish, ijobiy kontent yaratishga undash orqali ularni ijtimoiy taraqqiyotga xizmat qiladigan kuchga aylantirish mumkin. Bu esa yoshlarning sog‘lom ongli, faolligi yuqori va ijtimoiy mas’uliyatli avlod bo‘lib kamol topishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Jo'rayev O. Sotsiologiya asoslari. – Toshkent: «O'zbekiston», 2020.
2. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
3. Qodirov Q., Jo'rayev R. Sotsiologiya: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2019.
4. Abdullayeva Z. Raqamli jamiyat va yoshlar ijtimoiy faolligi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.